



\_\_\_\_\_ hokimligi  
*maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi*  
\_\_\_\_\_ning

*20\_\_ - 20\_\_ - o'quv yiliga 9 – sinf*  
*IV chorak uchun adabiyot fanidan*

***DARS***  
***ISHLANMALARI***

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘IBDO‘** \_\_\_\_\_

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf adabiyot fani IV chorak  
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
<b>IV chorak</b>				
1.	Richard Bax. “Oqcharloq Jonatan Livingston” qissasi (1)	1		
2.	Richard Bax. “Oqcharloq Jonatan Livingston” qissasi (2)	1		
3.	Richard Bax. “Oqcharloq Jonatan Livingston” qissasi bo`yicha ijodiy ish (insho yoki esse)	1		
4.	Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon. “Ko`ngil” she`ri	1		
5.	Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon. “Buzilgan o`lkaga” she`ri	1		
6.	Taqdimot (3 variantdan birini tanlab bajarish uchun)	1		
7.	Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon. “Uyqu” she`ri	1		
8.	<b>Nazorat ishi-7</b>	1		
9.	Jek London. “Hayotga muhabbat” hikoyasi (1)	1		
10.	Jek London. “Hayotga muhabbat” hikoyasi (2)	1		
11.	Jek London. “Hayotga muhabbat” hikoyasi (3)	1		
12.	Shavkat Rahmon. “Tungi manzara” va “Tong ochar ko`zlarin...” she`rlari	1		
13.	Shavkat Rahmon. “Jangda o`lgan emas biror bahodir” she`ri	1		
14.	Takrorlash	1		
15.	<b>Nazorat ishi-8</b>	1		
16.	Mustaqil o`qilgan asarlar muhokamasi	1		

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Richard Bax. “Oqcharloq Jonatan Livingston” qissasi (1)**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Milliy va umummadaniy kompetensiya:**

badiiy adabiyot va san’atda aks etgan vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlar tasviridagi o‘ziga xosliklarni anglash, ulardan ta’sirlanish, ulardagi go‘zallik va ezgulikdan o‘rnak olishga intilish, yovuzlik va xunuklikdan nafratlana olish;

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:**

aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish; shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yurita olish; kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o‘qiy olish va undan foydalana olish;

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vahti</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

Amerikalik yozuvchi, faylasuf, essenavis, uchuvchi va aviamekanik Richard Devid Bax 1936-yil 23-iyunda AQShning Illinoys shtatida dunyoga kelgan. Ona tomondan buyuk olmon bastakori logann Sebastyan Baxning uzoq avlodi. Adabiyotga maktab yoshidanoq qiziqqan Richardning uchuvchilikka ham havasi bor edi. Parvozga ishtiyoqi va aviatsiyaga qatnash istagiga qaramay, ota-onasining talabi bilan Kaliforniyadagi Long Bich universitetida tahsil olgan.

Keyinchalik o'z ixtiyori bilan armiyaga ketadi. Harbiy xizmatda bolganida Richard Bax AQSh harbiy-dengiz kuchlari zaxirasining 141-havo otryadida F-84F qiruvchi samolyotini boshqargan. Richard Baxning "Biplan", "Hech narsa tasodifiy emas", "Oqchorloq Jonatan Livingston", "Qanot tuhfasi", "Uzoqda bunday joy yo'q", "Uchish uchun tug'ilganlarga sovg'a", "Illyuziyalar", "Mangulik ko'prigi", "Tanho", "Parvoz" kabi asarlari bor. Uchuvchi adibning barcha asari u yoki bu tarzda parvoz mavzusiga bag'ishlangan. Richard Baxning "Oqchorloq Jonatan Livingston" rivoyat-qissasi o'tgan asrning 60-yillari so'ngida yozilgan. Asar chop etilgach, kutilmaganda mashhur bo'lib ketadi. Shu tariqa R. Baxga "Oqchorloq Jonatan Livingston" rivoyat-qissasi adabiy shon-shuhrat olib keladi. Asar *hikoya* sifatida e'lon qilingan bo'lsa-da, janrijihatidan *falsafiy ertak*, nasrda yozilgan *doston* yoki *masal* kabi tavsiflarga ham ega. O'zbek tiliga tarjima qilinganda *rivoyat-qissa* sifatida taqdim etilgan. Ko'rinadiki, asar tuzilishi, mazmuni, mavzusi, g'oyasi bir necha janr talablarini mujassam qila olgan. U hozirga qadar qirg'qa yaqin tilga tarjima qilingan. Richard Bax asar nomini sinovchi-uchuvchi, saksondan ortiq havo poygasida g'olib bo'lgan Jon X. Livingston sharafiga shunday nomlagan. Asar asosida "Jonatan Livingston otli chayka", "Hech narsa tasodifiy emas" kabi filmlar suratga olingan.



## QQCHORLOQ JONATAN LIVINGSTON (Rivoyat-qissa)

### *Asl Jonatanga - har birimizda yashaydigan Oqchorloqqa bag'ishlanadi.*

Tong pallasi edi, bo'y ko'rsatgan quyosh jimirlab yotgan dengiz betini oltin tusga belagan. Baiiqchi qayig'i qirg'oqdan bir milya1 narida. Suv uzra chaqiriq tovushi taraladi - bu nonushta xabari. Katta yig'in. Chorlov tag'in bot-bot yangraydi, nihoyat minglab oqchorloqlar uchib kelib, o'zini to'daga urmaguncha takrorlanadi. Har qaysi qush ayyorlik va abjirlik bilan tashlanib, yog'liroq luqmani yulib qochishga urinadi. Biroq Jonatan Livingston otli oqchorloq to'dada yo'q edi. U mashq qilardi -boshqalardan olisda, yolg'iz o'zi, qayiqdan va qirg'oqdan juda balanda parvoz etardi. Osmonga yuz fut yuksalib, pardali panjalarini bo'sh qo'ydi, tumshug'ini ko'tardi va butun kuchini yig'ib, qanotlarini egdi, juda qattiq og'riqqa chidab, ularni yoy shakliga keltirdi. Qanotlarni bunday shaklga keltirish, uning fikricha, parvozni imkon qadar sekinlatishi lozim edi. Va Jonatan havoda tobora sekin-sekin sirg'ana bordi. Qulog'iga urilayotgan shovullagan tovush eshitilar-eshitilmas shivirlashga aylandi va tubanda okean muallaq qotdi. Jonatan ko'zlarini qisib, zo'r berib diqqatini jamlagancha nafasini ichiga yutdi. Yana... birgina... bir... dyuym... birdan... bu... egri... Uning parlari titradi, chuvalashdi, tezlikni butkul yo'qotib qo'ydi, chalqanchasiga ag'darilib ketdi va pastga quladi. Sizga ma'lum bo'lsa kerak -oqchorloqlar hech qachon bunday tang ahvolga tushmaydi. Oqchorloqning parvoz chog'ida tuyqusdan to'xtagani, tezligini yo'qotgani kechirilmas hoi. Bu - uyat, bu - sharmandalik. Biroq ayni damda oqchorloq Jonatan



Livingstonga uyat hissi begona edi. U tag'in, juda qattiq og'risa-da, qanotlarini egik shaklga keltirdi - sekinlik bilan, ohista sirg'aldi va mashqi tag'in muvaffaqiyatsiz chiqdi. U mashqni takrorlayverdi. Chunki u oddiy qushlardan emas edi. Aksar oqchorloqlar uchishning jo'ngina qoidalari bilan qanoatlanadi, jiddiyroq parvoz qilishni o'rganishga o'zlarini urintirib o'tirmaydi. Qirg'oqdan oziqqacha uchib borib, uchib qaytilsa, ular uchun shuning o'zi kifoya. Ko'pchilikka parvoz emas, faqat ozuqaning o'zi

zarur xolos. Biroq Jonatan Livingston otli oqchorloq uchun muhimi - parvoz. Ozuqa esa - bu shunchaki... Chunki dunyoda Jonatan barchasidan ham uchishni yaxshi ko'radi. Hayotga bunday munosabat, Jonatanning anglashicha, oqchorloqlar galasida unga obro' keltirmasdi. Hatto ota-onasi ham uning har kuni yolg'iz o'zi yuz martalab sekin pastlab sho'ng'ib uchishni mashq qilishidan sarosimaga tushardi. U hali ko'p narsani, misol uchun, qanotlarini yarim qoqib ucharkan, havoda o'zining uzoqroq va deyarli zo'riqishsiz turishining sababini tushunmasdi. Jonatan hech qachon sekin pastlab qo'nishni odatdagi tarzda yakunlamas - panjalarini kerib, qanotlarini keng yoygancha qomi bilan tap etib suvga o'tirib olmasdi. Buning o'rniga u havoda davomli bir tekis sirg'alib, tanasi bo'ylab oldinga uzalgan panjalari bilan suv betiga tegib-tegmay uchishni mashq qilardi. Qushloq sohilga sirg'alib uchib qo'nishni o'rgana boshlagan paytda, har gal mahkam siqilgan panjalari bilan qumloqqa tepadan tushib kelarkan, uni ko'rgan ota-onasining o'takasi yorilguday bo'lardi.

- Nega bunday qilasan, Jon, nega? - deb qayg'urardi onasi. - Nahotki hamma qatori uchibqo'nib yurish shuncha qiyin bo'lsa?! Saqoqush shunday past uchadi. Albatroslar ham. O'shalar mashq qilaversin suv ustida pastlab uchishni! Axir, sen - oqchorloqsan! Nega hech ovqat yemaysan? O'zingga bir qara, o'g'lim, pating suyagingga yopishib ketibdi-ku!

- Mayli, yopishsa yopishar. Biroq men o'zimni hecham yomon his etayotganim yo'q, ona. Menga shunisi qiziq: osmonda nimaga qurbim yetadi, nimaga yetmaydi - shuni bilishni xohlayman xolos. - Gapimni eshit, Jonatan, - deya g'azabdan xoli ohangda gapirdi unga otasi. - Hademay qish kiradi, dengizda kemalar siyraklashib qoladi. Suv betida yashaydigan baliqlar tubroqqa ketadi. Agar senga biror-bir narsani o'rganish zarur bo'lsa, ozuqa topish yo'llarini o'rgangin. Sening bu uchish mashqlaring - ular, albatta, yaxshi, biroq o'zing tushunasan, sekin pastlab qo'nishni mashq qilish bilan qorin to'ydirib bo'lmaydi. Sening uchishdan maqsading - ovqat topish. Buni unutish yaramaydi. Jonatan itoatkorona bosh irg'adi va bir necha kun mobaynida o'zini tiyib, xatti-harakatlari boshqa barcha oqchorloqlarnikidan farq qilmasligiga urindi. Buni u baliq ovlaydigan kemalarda va ular to'xtaydigan joyda oqchorloqlar galasi uyushtiradigan jangga - baliq ichak-chavog'i, qotgan non bo'laklari uchun kechadigan qiy-chuv to'polonga qo'shilib, o'zicha halol va hafsula bilan talashib-tortishib ko'rsatishga harakat qildi. Biroq yashash uchun bunday kurashishga nisbatan o'zida jiddiy munosabat uyg'otish Jonatanga muyassar bo'lmadi.

- Qandaydir bema'nilik, - o'yladi u uchib borarkan va ming mashaqqat bilan talashib tortib olgan luqmani atay tushirib yubordi. Jonatanning ortidan quvib kelayotgan qari oqchorloq luqmani ilib oldi.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. **Muallif** oqchorloq Jonatanni "*oddiy qushlardan emas edi*", deb ta'riflaydi. Uning o'ziga xosligi **nimada?** Matnga tayanib, fikr bildiring.

2. **Oqchorloq** (boshqa nomlari: chag'alay, chayka) haqida nimalar bilasiz? Uni qayerlarda uchratish mumkin?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** Muallifning "*umr zavoli*" sifatida keltirgan uch sababiga ("*yurakni siqadigan xunobgarchilik, qo'rquv, kin-advovat*") oqchorloq Jonatanning hayotidan misollar keltiring. "*Umming zavoli*"ga yana nimalarni qo'shgan bo'lardingiz. Yozing va asoslang.

Umrning zavoli		
Jonatan uchun:	<i>yurakni siqadigan xunobgarchilik</i>	Masalan: ...
	<i>qo'rquv</i>	Masalan: ...
	<i>kin-advovat</i>	Masalan: ...
Men uchun:	...	Chunki ...
	....	Chunki ...
	...	Chunki ...

O'IBDO': \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

<b>Sana:</b>				
<b>Sinf:</b>				

**Mavzu: Richard Bax. “Oqcharloq Jonatan Livingston” qissasi (2)**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy:** o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

**Tarbiyaviy:** o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

**Rivojlantiruvchi:** o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

**O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:**

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:**

mavjud axborot manbalaridan (kitob, ommaviy axborot vositalari, internet, lug‘at, ma’lumotnomalar, (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish va ulardagi materiallarga ongli munosabat bildirish, xulosa chiqarish, ibrat olish va o‘z faoliyatida qo‘llay olish.

**O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:**

shaxs sifatida ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilishni hayotiy-ma’naviy ehtiyojga aylanta olish;

badiiy asarlarda tasvirlangan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlash va ularga amal qilish; badiiy kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish, xulosa chiqarish, ibrat olish;

o‘z xatti-harakati, fikr-mulohazalariga tanqidiy yondasha olish, o‘zini nazorat qila bilish, og‘zaki va yozma matnlar mazmuniga to‘g‘ri baho bera olish.

**Darsning metodi:** og‘zaki (suhbat, savol-javob)

**Darsning vositalari:** dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

**Shakl:** jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

**Nazorat:** o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

**Baholash:** o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

**Darsning borishi:**

<b>№</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Vaqt</b>
<b>1</b>	Tashkiliy qism	3 daqiqa
<b>2</b>	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
<b>3</b>	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
<b>4</b>	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
<b>5</b>	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
<b>6</b>	Uyga vazifa	2 daqiqa
<b>Jami</b>		<b>45 daqiqa</b>

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**III. Yangi mavzu bayoni:**

**OQCHORLOQ JONATAN LIVINGSTON**

Jonatan o‘zi voyaga yetgan muhitni hecham eslamasdi. O‘sha muhitda oqchorloqlar to‘dasi - jonzotlar jamoasi istiqomat qilardi. Ular ko‘zlari ochilishini va parvoz zavqini ko‘rishni mutlaqo

istashmas, shu bois, o'z qanotlarini qorin to'yg'izadigan va ozuqa uchun talashib-tortishadigan bir vositaga aylantirib olishgan edi... Biroq gohi-gohida ular bexosdan Jonatanning yodiga tushib qolardi. Shu zayl bir kuni tong pallasida Jonatan - yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ustoz bilan qanotlarni yig'ib aylanib uchish mashqini bir necha marta takrorlagach, qirg'oqda dam olib o'tirganida - ular yodiga tushdi.

- Menga qara, Salliven, qolganlar qayerda? - ovoz chiqarmay so'radi Jonatan. U allaqachon bu joyda odat tusiga kirgan telepatik aloqa san'atini o'zlashtirib ulgurgan, bu usul chirqillab yoki chug'urlab, dudmol va chalkash gapirishdan ming bor afzal edi.

- Nega biz bu yerda kamchilikmiz? Axir u yoqda - men kelgan yoqda...

- ... behisob - ming-minglab oqchorloqlar bor edi, demoqchisan, tushundim. - Salliven boshini sermadi. - Mening javobim bunday: sen kamyob qushlar sirasidansan. Sendaylar, nari borganda, milliontadan bitta. Biz qanday bo'lsak shundayligimizcha, qayerdan kelganimizni unutib va qayerga ketayotganimizning hech bir tashvishini tortmay, bir olamdan boshqasiga uchib o'taveramiz. Biz shunchaki o'tayotgan lahzalar bilan qanoat qilib yashaymiz. Sen tasavvur qilasanmi: yashashdan maqsad - qorin to'yg'azish, ozuqa talashib janjallashish yoki to'daga hokim bo'laman, deb kuyib-pishishdan iborat emasligini anglab yetish uchun har qaysimiz nechta umrni yashab ko'rishimiz lozim bo'larkan?.. Minglab umrni, Jon, o'n minglab umrni. Shundan keyin esa dunyoda komillik degan tushuncha ham borligini fahmlashimiz zarur. Bunga yana necha yuzlab umrlar kerak. Yana yuzlab umrlar esa hayot mazmuni - komillik yo'lidagi izlanishlarga sarflanadi; bizning har birimizning vazifamiz - botinimizda komillikka xos fazilatlarini tarbiyalash va ayni paytda turish-turmushimizni, xatti-harakatlarimizni ham shu maqsadga uyg'unlashtirib bormoqdan iborat. Tiriklikning barcha bosqichida bitta qonun ustuvor: keyingi olamga biz shu yerda - bu olamda orttirgan ilmimiz vositasidagina kirib bora olamiz. Agar avomligimizcha qolsak hamda bilimimizning sayozligiga befarq bo'lsak, keyingi olamimiz hozirgisidan hech qanday farq qilmaydi, jamiki to'siqlar yo'limiz ustida yana ko'ndalang bo'lib turaveradi va o'zimiz tag'in qo'rg'oshinday og'ir qanotlarimizni sudrab, o'sha to'siqlardan o'tishga baribir majbur bo'lamiz. Salliven qanotlarini yoydi va yuzini shamol esayotgan tomon burdi.

- Biroq sen, Jon, bir umr mobaynidayoq juda ko'p ilmni egallay bilding, shu bois ham to'g'ri bu yoqqa kelib tushding, sen kamida mingta umr sarf bo'ladigan mehnatni ado qilding. Bir lahza o'tib, ular yana osmonda paydo bo'ldi. Mashg'ulot davom etdi... Shorn pallasida edi. Tungi parvozga chiqmagan oqchorloqlar to'dalashib qumda o'tirishar va churq etmay o'y surishardi. Jonatan o'zini qo'lga olib, qat'iyat bilan ulug' ustoz qoshiga yo'l oldi. Yaqin orada u bu olamni tark etib, koinot sari yo'l oladi, degan gaplar yurardi. - Ustoz Chiang... - biroz hayajonli ohangda Jonatan ulug' ustozga murojaat qildi.

- Nima gap, o'g'iim? - Uiug' ustozning qarog'ida mehr nuriari baiqidi. Yoshi bir joyga borganiga qaramay, u kuchdan qolmagan, aksincha - o'tgan yillar mobaynida kuch-g'ayratda yanada yuksalgan edi. U tengsiz bir san'at bilan parvoz etardi va to'dada u bilan bellasha oladigan jo'mard topilmasdi. Chiang allaqachon zabt etgan mahorat cho'qqisiga boshqalar yaqinlashishga endigina urinib ko'rayotgan edi.

- Ustoz Chiang, bu olam... harqalay osmon-u falak emas-ku, to'g'rimi? Oy nur taratardi. Ulug' ustoz tabassum qilayotgani ko'rinib turardi.

- Oqchorloq Jonatan, sen tag'in bilim olishga kirishyapsan, - javob qildi u.

- Bu yaxshi, biroq bizni oldinda nimalar kutayotir? Biz qayoqqa yo'l olganmiz? Aftidan Falak deganlari aslida yo'q joymikan?

- Sen haqsan, Jonatan, bunday joy chindan ham yo'q. Zotan falak na makon va na zamon, balki o'zimiz erishgan komilligimizdir. Biroz jim qolib, ulug' ustoz beixtiyor so'radi:

- Sen juda tez uchasan, to'g'rimi?

- Men... ha, men tezlikni yaxshi ko'raman, - dedi Jonatan biroz iymanib, biroq ulug' ustoz o'zining san'atiga e'tibor qaratganidan xiyla g'ururlandi.

- Nima ham derdim, demak, sen falakka chiqa olasan, Jonatan, sen mukammal tezlikni egallaganingda shunday bo'ladi. Mukammal tezlik esa - soatiga minglab mil ucha olish emas. Million mil uchish ham emas. Bu yorug'lik tezligi ham emas. Zotan har qanday son mohiyatan

chegarani, me'yorni anglatadi, chegara esa har doim cheklab qo'yadi. Komillik chegara nimaligini bilmaydi. Demak, mukammal tezlik, o'g'lim, bu - borishga taraddudlangan joyingda hozir bo'lishing. Shunday deb Chiang g'oyib bo'ldi va shu lahzadayoq suv yoqasida - oldin turgan joyidan o'n besh fut narida ko'rindi. Keyin yana ko'zdan yo'qoldi va bir sekundning mingdan bir ulushicha fursatda Jonatanning yonida paydo bo'ldi.

- Bu shunchaki hazil, - dedi u.

Jonatan hayratda qolgan edi. Osmon-u falakka taalluqli savollar birzumda unut bo'ldi.

- Bu qanday qilinadi? Bu tarzda qancha masofagacha ko'chib o'tish mumkin?

- Xohlagan makonga borish va istalgan zamonga ko'chib o'tish mumkin, - javob qildi ulug' ustoz.

- Hammasi sening tanlovingga bog'liq: qayerda hozir bo'lishni niyat qilgan bo'lsang, o'sha joyda paydo bo'lasan. Shu tariqa makon va zamonda sayohat qilib, men o'zim istagan barcha joylarda xohlagan vaqtimda hozir bo'ldim. Chiang dengizga qaradi.

- Qiziq, - deya davom etdi u. - Sayohatni afzal ko'rib, komillikka intilishni rad etgan oqchorloqlar hech bir manzilga borolmaydi, chunki ularning harakatlari juda sust. Aksincha, makonda u yoqdan-bu yoqqa uchib-qo'nib yurishdan voz kechish evaziga komillikka erishish yo'lini tanlaganlar ko'z ochib-yumguncha fursatda o'zlari xohlagan joyda bo'la olishadi. Demak, Jonatan, yodingda tut: falak makon va zamonda mavjud allaqanday joy emas, zero bunda joy va vaqt hech qanday ahamiyatga ega emas. Falak - bu...

- Menga qara, sen meni shunday uchishga o'rgata olasanmi? - Jonatan o'ziga noayon olamning yana bir ko'chasini zabt etish imkoniyati ochilayotganini his etib, sabrsizlikdan titrardi.

-Agar sen o'rganishni xohlasang, albatta.

-Xohlayman. Qachon boshlaymiz?

- Hoziroq boshlashimiz mumkin, sen e'tiroz bildirmasang. ... Jonatan tong otgandan kun botguncha tinimsiz mashq qilar, bir zum qarab turmasdi. Biroq qanchalik ter to'kib mashq qilmasin, turgan joyidan bir qarich ham jila olmadi... Bir kuni Jonatan qirg'oqda ko'zlarini yumib, diqqatini bir nuqtaga jamlashni mashq qilardi. Shunda favqulodda hammasini lahzada anglab yetdi - bu yarq etib chaqnagan chaqmoqday ro'y berdi -Chiangning saboqlarini tushundi.

- Ha-ya, men allaqachon kamolga erishganman, men aslida komil edim! Hech qanday kuch meni cheklangan doirada majbur qilib ushlab turolmaydi, chunki tabiatimga ko'ra mening imkoniyatlarim chek-chegarasiz. U vujudida ishonchdan tug'ilgan quvonchning qudratini his qildi.

- Yasha! - dedi Chiang va uning ovozida g'alabadan masrurlik ohangi ustuvor edi. Jonatan ko'zlarini ochdi. Ular ikkovlon - ulug' ustoz va Jonatan mutlaqo notanish qirg'oqda turardi. Yonlarida biror-bir jonzot yo'q edi. Suvning kanorigacha tushib kelgan daraxtlarning uchida bir juft oltin tusli quyosh porlardi.

#### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash**

1. Salliven bilan so'zsiz - "telepatik aloqa" orqali gaplashishi nima uchun Jonatanga "*chirqillab yoki chug'urlab dudmol va chalkash gapirishdan ming bor afzal*" edi? So'zsiz tushunish darajasiga

erishish uchun insonlar qanchalik bir-biriga yaqin va dildosh bo'lishi kerak?

2. Sallivenning Jonatanga q a r a t a :.. *yashashdan maqsad- qorin to'yg'azish, ozuqa talashib janjallashish yoki to'daga hokim bo'laman, deb kuyib-pishishdan iborat emasligini anglab yetish uchun har qaysimiz nechta umrniyashab ko'rishimiz lozim bolarkan?.. Minglab ummi, Jon, o'n minglab umrni*", - deb aytgan fikrlarini insoniyatning ba'zi toifalariga nisbatan ham qaratilgan dashnom yoki tanbeh sifatida qabul qilish mumkinmi? Nima uchun?

**V. Darsni yakunlash:** o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

**O'IBDO':** \_\_\_\_\_

(imzo)

(sana)

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

## **Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**43 listdan iborat adabiyot fanidan 9-sinf IV chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.**




Telegram kanalimiz:

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

To‘lov uchun: **UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!  
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**